

MAKTAB MUHITIDA IJOBIY PSIXOLOGIK IQLIM YARATISH
" HAYOT GO'ZAL YASHASH UCHUN 1001 SABAB"
AKSIYASI MISOLIDA

FARG'ONA VILOYATI QO'SHTEPA TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM BO'LIMIGA QARASHLI
21-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB PSIXOLOGI
SOLIJOVA ROHILA MUQIMJON QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada maktab psixologi, o'qituvchilar va ota-onalarning ushbu jarayondagi roli, shuningdek, psixologik xizmatning ahamiyati batafsil yoritiladi. bundan tashqari o'quvchilar bilan o'tkazilgan turli aksiyala, davra suxbatlari, maxsus uchrashuvlar xam amalga oshirilmoqda. Jumladan: "Hayot go'zal-chunki unda men borman", "Yashash uchun 1001 ta sabab" nomli aksiyalar misol bo'ladi.

Kalit so'zlar: maktab psixologi, ijtimoiy-psixologik iqlim, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Kirish

Maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Sog'lom ijtimoiypsixologik muhit o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish usullari, bu jarayonda maktab psixologi, o'qituvchilar va ota-onalarning roli, shuningdek, psixologik xizmatning ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy Qism

Ijtimoiy-psixologik iqlim — bu jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, hissiy holatlar va umumiy kayfiyatning yig'indisi bo'lib, u ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom ijtimoiypsixologik iqlim o'quvchilarning o'zlarini erkin his etishlari, o'qishga bo'lgan qiziqishlarining oshishi va shaxsiy rivojlanishlariga zamin yaratadi. Aksincha, nosog'lom muhit stress, motivatsiyaning pasayishi va xulq-atvor muammolariga olib kelishi mumkin. Maktab psixologi sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.



Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

Psixologik diagnostika: O'quvchilar va o'qituvchilarning psixologik holatini o'rganish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish. Psixologik profilaktika: Stress, ziddiyatlar va boshqa salbiy holatlarning oldini olish maqsadida treninglar, seminarlar va suhbatlar tashkil etish. Psixologik maslahat: O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga individual yoki guruhiiy maslahatlar berish orqali ularning psixologik farovonligini ta'minlash. Psixokorreksiya: Aniqlangan psixologik muammolarni bartaraf etish uchun maxsus dasturlar va mashg'ulotlar o'tkazish. Maktab psixologi o'z faoliyatida o'qituvchilar va ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilib, o'quvchilarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilar maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borishlari lozim: Shaxsiy namuna: O'qituvchilar o'zlarining xulq-atvori, muloqot madaniyati va odob-axloqi bilan o'quvchilarga namuna bo'lishlari kerak. Adolatli munosabat: Har bir o'quvchiga adolatli va hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish. Faol tinglash: O'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularning muammolariga e'tibor berish va qo'llab-quvvatlash. Hamkorlikni rivojlantirish: Guruhiiy ishlar, loyihalar va boshqa faoliyatlar orqali o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

Hozirgi kunda barcha maktablarda "Hayot go'zal – chunki unda men borman", "Yashash uchun 1001 ta sabab" nomli maktabda ijtimoiy iqlimni yaxshilashga qaratilgan tadbir va aksiyalar tashkil etilmoqda. Jumladan: Qo'shtepa tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi Solijonova Rohila tomonidan maktabda "Hayot go'zal Yashash uchun 1001 ta sabab" nomli aksiya o'tkazildi.

Aksiyaning o'tkazishdan ko'zlangan maqsad: ishtirokchilarga yaxshi kayfiyat ulashish, ularda mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish, ruhiy zo'riqishni bartaraf etish va ahillikni ta'minlashdan iborat. Aksiya doirasida sinflar kesimida korreksion, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazildi. Maktab xodimlari uchun aksiya doirasida taqdim etilgan ilovalardan to'liq foydalangan holda psixologik trening mashg'ulotlari o'tkazildi. Aksiya ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilib unda barcha o'qituvchilar va o'quvchilar faol ishtirok etishdi. Aksiya doirasida maktabning sinf xonalari va yo'laklarida hayotni qadrlash, ijobiiy fikrlash va orzu-maqсадlar sari intilishga undovchi mazmunli shiorlar joylashtirildi. Shuningdek, maktab psixologi tomonidan o'quvchilar bilan suhbatlar, psixologik mashg'ulotlar hamda motivatsion uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Mazkur aksiya o'quvchilarning ruhiy barqarorligini mustahkamlash, ularni hayotning har bir o'rnini qadrlashga undash hamda ijobiiy kayfiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Aksiya davomida o'qituvchilar hamda o'quvchilar ishtirokida psixologik mashg'ulot o'tkazildi. Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar hayotdan minnatdor bo'lishlari mumkin bo'lgan 10–15 ta sababni yozib chiqdilar.

Mazkur mashg'ulot o'quvchilar va pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish, hayotga bo'lgan ijobiy munosabatni mustahkamlash hamda ruhiy ko'tarinkilikni oshirish maqsadida tashkil etildi.

Tadbir barcha ishtirokchilarda iliq taassurot qoldirdi. Ushbu tadbir natijasida maktab jamoasida ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishning samarali usullari aniqlanib, ularning o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda o'rganildi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilindi. O'quvchilarning psixologik farovonligi va motivatsiyasini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar tavsiya etildi. Ziddiyatlarni boshqarish va hal qilish strategiyalari ishlab chiqildi. Maktab psixologik xizmatining roli va uni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari maktab jamoasida ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirishning nazariy asoslarini kengaytirishga xizmat qiladi. Olingan natijalar ta'lim jarayonida sog'lom muhitni yaratishning muhimligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu esa o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axborot asrida ta'lim- tarbiya. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.X. Jabborov – Toshkent: Akadem nashr.2012.
2. Qoriyev A Globallashuv jarayonlarida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etayotgan internet ijtimoiy tarmoqlari // Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishda axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari to'plami – T: 2014.- B. 111.
3. Qurbonov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz... – T: Ma'naviyat. 2014.

